

Surxondaryo viloyatida chakana va ulgurji savdo tovaraylanmasi

2026- yily anvar dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI**
- IV. META MA'LUMOTLAR**
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR**


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 038 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 72 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 4 966 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 2144,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning yanvar oyiga nisbatan 111,1% ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 81,5 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,7 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2 063,0 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 549,0 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 113,7 %) tashkil etdi.


Hududlar kesimida chakana savdo tovara ylanmasi o'sish sur'ati (% da)



Mavzuga doir havola: [Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

(ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 549 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 16 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 533 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 699,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 11,8 % ga o'sdi.

Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 667,9 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 95,4 % ni tashkil qildi.


Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi \(oylik\)](#)

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Termiz shahri (186,1%), Jarqo'rg'on (74,3 %) va Sariosiyo (74,3 %) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




Mavzuga doir havola: [Ulgurji savdo hajmi o'sish sur'ati \(oylik\)](#)

III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2026-yil1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalar soni 1 566 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 565 tani tashkil qildi.

2026- yilning yanvar oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 658,0 mlrd so'mga yetdi. 2025- yilning mos davriga nisbatan 12,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)



IV. META MA'LUMOTLAR



Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji vachakana savdo tovara ylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Ulgurji savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ulgurji savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasi hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Aholi jon boshiga chakana savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

[Ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'ati \(hududlar kesimida, oylik\)](#)

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: A.Dusnazarov Tel: +998554518000 (7540)	Ijrochi: I. Yusupova Tel: +998554518000 (7541) e-pochta: info@surxonstat.uz	Manzil: 190108, Termizsh. at-Termiziy ko'chasi, 7-uy,
--	---	--	---